

### **ONA (Mir Alisher Navoiyning onasi to'g'risida)**

*Toshkent viloyati Ohangaron shahar*

*1-umumiyl o'rta ta'lim maktabi*

*boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

*Yo'ldosheva Feruza Abdixakimovna*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Mir Alisher Navoiyning onalari haqida bir necha mulohazalar keltirilgan bo'lib, Alisher Navoiyning ilk ma'naviy ustoziga deya e'tirof etilgan.

**Kalit so'zlar:** *madrasa, tez idrokli, "ko'k yog'luq", ona siymosi, iftixon, tuyg'usi.*

### **МАМА (о матери Мир Алишера Навои)**

*г. Ахангаран, Ташкентская область.*

*1-я общая средняя школа*

*учитель начальных классов*

*Ёлдошева Феруза Абдихакимовна*

**Аннотация:** в данной статье приведены некоторые комментарии о материях Мир Алишера Навои, которые признаны первыми духовными учителями Алишера Навои.

**Ключевые слова:** медресе, быстрое восприятие, «голубой жир», фигура матери, чувство гордости.

### **MOTHER (about Mir Alisher Navoi's mother)**

*Tashkent region, Akhangaran city.*

*1st general secondary school*

*primary school teacher*

*Yoldosheva Feruza Abdihakimovna*

**Abstract:** This article contains some comments about the mothers of Alisher Navoi's world, who are recognized as the first spiritual teachers of Alisher Navoi.

**Key words:** madrasa, quick perception, "blue fat", mother figure, sense of pride.

*Butun madaniyat va ma'rifat olamida hanuzgacha Abu Said Changning qizi, G'iyosiddin Bahodirning sevimli rafiqasi, o'z davrida tanilib ulgurgan shoirlar Mirsaid Kobuliy, Muhammadali G'aribiyning fidoyi opasi, ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning aziz onalari ismiga qiziqish yo'qolgani yo'q...*

Masalan, yozuvchi Mirkarim Osim "Zulmat ichra nur" qissasida berilgan tarixiy asosga yo'g'rilgan badiiy chizgini keltirsak: "Bir kuni o'iyosiddin beshik quchoqlab o'tirgan xotiniga:

— Alisher to'rt yoshga to'lib, beshga qadam qo'ydi, ani mакtabga beraylik, — deb qoldi.

— Hali yoshlik qilmasmikin? — dedi Alisherning onasi kirtaygan, horg'in ko'zlarini ko'tarib. Uning emizakli bolasi Darveshali juda yig'loqi bo'lib, tinka-madorini quritar edi.

— Bola o'tkir zehnli, tez idrokli. Bekor yurgandan ko'ra harf o'rgansin. Erta shanbadan boshlab Husayn bilan birga maktab borsin.

— Ixtiyor sizda..."

Demak, "Ixtiyor sizda...", deya mehribon ona hadik bilan rozi bo'ldi va ko'nglida o'g'li Alisherning ustozlaridan olgan saboqlarini vaqtida nazorat qilib borishni, uy vazifalarini bajarishda diqqatli bo'lishni niyat qildi.

Manbalarning guvohlik berishicha, Alisher Navoiyning onasi "osmonni yerga tushirgan" deb e'tirof etilgan Ulug'bek Mirzoning onasi, malika Gavharshodbeginning ma'rifiy yig'inlarida ishtirok etgan, bolaligida bu ma'naviy rishtaga ko'p bora guvoh bo'lgan bola Alisherning keyinchalik mashhur malikaga "Vaqfiya" asarida "Mahdi ul'yo va Bilqisi uzmo" deb yuksak baho

berishiga, “Majolis un-nafois” tazkirasida esa Hirot madaniy, ma’rifiy hayotiga sezilarli ijobiy ta’sir ko’rsatgan “Gavharshodbegim” madrasasini bir necha marta esga olishiga sabab bo’lgan, deyish mumkin.

Navoiy yashagan davrda xotin-qizlarning boshiga o’raydigan ro’mol turlaridan birining nomi “ko’k yog’luq” bo’lgan. Alisher Navoiy esa aynan ushbu “ko’k yog’luq” ro’moli bilan bog’liq peyzajni “Hayrat ul-abror”ning “Avvalg’i hayrat” bobida yozgan:

Gul ul o’yung’a chu havas ko’rguzub,

Jaybidag’i xurdalarin o’tquzub.

Jola binafshag’a urub toshini

Bog’lab ko’k yog’luq ila boshini.

Navoiy aynan “ko’k yog’luq” ro’molini go’zal bir chizgilarda tilga olishi bir tomondan, hasbi hol xarakterida bo’lsa, ikkinchi tomondan o’quvchi uchun ham hayratli, ham qiziqarli tarzdagi lirik lavhadir. Hasbi hol deyishimizga sabab, balki shoirning muhtarama onasi shu singari ro’molni yoqtirgan yoki shoir quloq og’rig’ida bog’lagan “ko’k yog’luq” aynan onasidan qolgan yodgorlikdir, degan xulosaga kelishimiz ham mumkin. Fikrimiz isboti sifatida “Boburnoma”da Alisher Navoiy haqida tarixiy ma’lumotlardan birida “... Alisherbek quloq og’rig’ida yog’luq bog’lag’on uchun xotunlar ko’k yog’luqni qiyiq bog’lag’oni “nozi Alisheri” ot qo’ydi”, deb yozilganini o’qishimiz mumkin.

Alisher Navoiy o’z asarlarida yaratgan onalar siymosida, onalar tilidan bitilgan duo va istaklarida o’z validasining fazilatu sifatlarini, so’zlarini badiiy talqin qilgan bo’lsa, ne ajab!

Qayd etish kerakki, ulug’larimiz qalamidan “Alisherning onasi” deb talqin qilingan tarixiy hamda badiiy lavhalarning guvohlik berishicha, Alisher Navoiyning onasi u ulug’ zotning birinchi ma’naviy ustozlari ham bo’lgan. Biz va dunyo xalqlari o’tmishda ham, bugun ham bu ulug’ onaga, bu ulug’ ustozga, bu ulug’ kayvoni aylolga, bu nurli nuqtaga ixlos, havas, umid bilan boqmoqda. Qadimiy naqllardan birida aytishicha, olamga va olam ahliga bobo-buvilari, otonalari tomonidan katta yaxshilik o’tgan bo’lsa, Yaratganning inoyati bilan shu

avloddan, shu xonadondan shoh, mashhur ulamo, ijodkorlar yetishib chiqar ekan. Qarangki, ushbu qadimiy naqlga tushgan mashhur ijodkorlar safida Alisher Navoiyning ham nomi bor. Mazkur shonu sharafda onalarining duosi, xizmati, yaxshiligi tufayli abadiyatga daxldor zot bo'lib yetishgan Alisher Navoiy har birimizda iftixor tuyg'usini uyg'otadi.

### **ALISHERNING ONASI**

#### **Abdulla Oripov**

Bilmam, qanday ayol bo'lган  
Alisherning onasi.  
Balki uning aqliga ham  
Lol bo'lган zamonasi.  
Balki uning ko'zlarida  
Bo'lган og'ir bir xayol.  
Balki g'amgin bir zotdir u,  
Balki sho'xchan bir ayol.  
Balki buyuk farzandiga  
Terib kelgan chechaklar.  
Balki tunlar unga bedor  
Aytib bergan ertaklar.  
Mayliga, u kim bo'lmasin,  
Yolg'iz bir so'z ma'nosi:  
Alisherning onasi u,  
Navoiyning onasi.

*1968 yil*

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

Valitova, A. A. (1974). „Alisher Navoi“. A. M. Proxorov [\(rus.\)](#). Buyuk Sovet Ensiklopediyasi. 17 (3-nashr). Moskva: Sovet Ensiklopediyasi. 194-195-betlar.  
A. M. Proxorov, muhar. (1997). „Navoi, Nizamiddin Mir Alisher“ [\(rus.\)](#). Buyuk Ensiklopedik Lug'at (2-nashr). Sankt-Peterburg: Buyuk Rus Ensiklopediyasi.  
777-bet

- Alisher Navoi, Mukammal asarlar tuplami. 3 jild. Toshkent, 1988
- Z.Hamidov. Navoiy badiiy san'atlari. — T.: Universitet, 2001;
- N.Bozorova. Alisher Navoiy g‘azallarida ko‘ngil obrazi. -T.: 2002;
- ] "Insoniyat haqida Navoiyning fikri. — T.: 1919;
- Fitrat. „Farhodu Shirin“ dostoni to‘g‘risida. Tanlangan asarlar. 2-jild. -T.: 2000;
- T.Jalolov. „Xamsa“ talqinlari. -T.: 1962;
- S.Erkinov. Alisher Navoiyning „Farhodu Shirin“i va uning qiyosiy tahlili. — T.: Fan, 1971;
- A.Qayumov. „Xayratul-abror“ talqinlari. — T.: 1972;